

## DORIVOR CHAKANDA (ОБЛЕПИХА) O'SIMLIGINING ZARARKUNANDALARI

*FDU., o'qituvchi*

**M.I.Teshaboyeva**

*Talaba*

**I.Ro'zmamatova**

*Talaba*

**F.Komiljonova**

**Annotatsiya:** *Chakandaning shish xosil qiluvchi nematodasi, bargo'rovchilar, tok ipak qurti va vergulsimon kalkondorlar ham katta zarar keltiradi. Yashil chakanda shirasi iyun oyining yarmida-iyul oyining boshlarida chakanda o'simligining barglari sarg'ayib boshlaydi va barglari bujmayib qoladi va keyinchalik to'kilib ketadi.*

**Abstract:** *Chakanda tumor nematode, leaf borers, vine silkworm and comma chalcid also cause significant damage. Green chakanda sap in mid-June to early July, the leaves of the chakanda plant begin to turn yellow and the leaves become stunted and later fall off.*

### KIRISH

Hozirgi kunda chakanda bir kancha zararkunandalar bilan zararlanadi. Ulardan eng ko'p zararlaydiganlari yashil chakanda shirasi, shuningdek yildan yilga kushlar xam pishgan mevalarni yeb katta ziyon keltirmoqda. Sichqonlar ham ularning poyasini kemiradi, suv kalamushlar esa ildiz qismini kemirib zararlaydi. Chakandaning shish xosil qiluvchi nematodasi, bargo'rovchilar, tok ipak qurti va vergulsimon kalkondorlar ham katta zarar keltiradi.

Yashil chakanda shirasi. Iyun oyining yarmida-iyul oyining boshlarida chakanda o'simligining barglari sarg'ayib boshlaydi va barglari bujmayib qoladi va keyinchalik to'kilib ketadi. Bu vaqtda barglarning ostki qismida yashil 2-3 mm kattalikdagi yashil shiralarni kuzatish mumkin. Ularning kuzlari qizil tusda bo'ladi.

Barglar to'kilib ketgandan so'ng ular pastki qismiga tushadi. May o'rtalarida va oxirlarida ular qanotlarini tashlab yuboradi va 30-40 tadan lichinkalarni tugadi. Bu lichinkalardan qanotli urg'ochilar paydo bo'lib boshqa o'simliklarga uchib borib qo'nadi va lichinka tugib yangi koloniyalarni xosil qiladi.

Karshi kurash: 50 gr xo'jalik sovunini 10 litr suvda eritib o'simlikka purkaladi. Purkagichni barg ostiga olib borib purkaladi, u shiralarga tegishi kerak. Yomgirli kunlarda 2-3 kundan keyin takroran purkaladi. Tomorka yerlarida sarimsok piyoz, tamaki qaynatmalarini sepish samara beradi. Pestitsidlardan 10% li karbofos (75 gr preparat 10 litr suvda eritiladi) purkaladi. Kimyoviy vositani ishlatish mevalar pishishiga 30 kun qolganda to'xtatiladi.

Pushtirang bargo'rar-Листовертка розанная. Kapalagi qanotlarini yozganda 15-22 mm keladi. Lichinkasi 18-25 mm uzunlikda bo'ladi, yashil tusda, boshi qora tusda. Iyul oyigacha oziqlanadi va g'umbakka aylanadi. Avgust boshida g'umbakdan kapalak uchib chiqadi. Avgust

oxiri va sentabr boshlarida kapalaklar o'simliklarning yumshok qismlariga tuxum qo'yadi. Tuxumi qishlab chiqadi. Bargo'rar qurt zararlagan barglar o'rgimchak turi bilan o'ralib, bujmayib qotib qoladi. Bu xolat may-iyul oyi boshlarida kuzatiladi. Chakanda o'simligi bargo'rar bilan kuchli zararlanganda unga, xosilni yotishga 30 kun qolganda 0,2 % li qilib 80 % xlorofos (15—20 gramm 10 l suvda eritiladi) purkaladi.

Qishlovchi fazalariga esa o'simlik kurtaklaguncha 2% qilib 60% nitrafena purkaladi (200-300 gramm 10 l suvda eritiladi).



Тоқ ипак курти-*Porthethria dispar L.*

Chakanda shish xosil qiluvchi kanasi-Облепиховый галловый клещ. Barglarni zararlaydi, natijada barglar shaklini o'zgartirib, shishlar paydo qilib, xunuk holga kelib qoladi. Natijada barglar to'kilib ketadi. Chakanda shish xosil qiluvchi kana sut rangda, surib zarar keltiradi. Uzunligi 0,2 mm, faqat lupa ostida ko'rinadi. Iyun oyida urg'ochilari tuxum qo'yadi. Iyul oyidan sentabrgacha oziqlanadi. Yoz davomida bir necha marta avlod berishi mumkin. Unga qarshi Korbofos preparati bilan ishlov beriladi.

Chakanda shish xosil qiluvchi kanasi-Облепиховый галловый клещ.



Чаканда куюси- Облепиховая моль

Вергулсимон калкандор-Запятовидная щитовка.

Vergulsimon kalkondor-Запятовидная щитовка. O'simlikni shirasini surib zararlaydi. O'simlik shoxlarida kichkinagiga vergulsimon dog'lar ko'rinadi. Bu dog'lar vergulsimon kalkondorlar xisoblanadi. Yoz oxiriga borib bu dog'lar kuzga yaxshi ko'rinadigan holga kelib qoladi. Bu hasharotlarni metall cho'tkalar bilan o'simlik tanasidan tushrib tashlash mumkin. Ularga qarshi erta bahorda S-30 preparati yoki nitrafen preparati bilan ishlov berish lozim.



Чаканда пашшаси-Облепиховая муха

Chakanda pashshasi-Облепиховая муха. Chakandaning eng xavfli zararkunandasi hisoblanadi. Ba'zi yillari hosilni butunlay yo'qotadi.

Oq tUSDagi oyoqsiz lichinkalar mevalarga o'rnashib olib mevalarni yumshoq qismini yeb tugatadi, natijada mevalar istemolga yaroqsiz holga kelib qoladi. Zararlangan mevalar qorayib to'kilib ketadi. Zararkunanda hosilni 90% gacha nobud qiladi. Bunga qarshi iyul oyida 80% xlorofos bilan ishlov beriladi. Ba'zan purkash bir haftadan keyin takror o'tkaziladi. 15-20 gramm preparat 10 suvda eritiladi.

Chakanda kuyasi- Облепиховая мол. Lichinkalari yosh shonalar ichiga kirib oladi va uni kemiradi. Yozda lichinkalar bargning o'suv nuqtasiga o'rnashib oladi va uni o'rgimchak turi bilan o'rab oladi. Ular kuchli rivojlangan yillari xosilga sezilarli darajada zarar keltiradi.

Bularga qarshi bakterial preparatlar, bitoksibatsillin yaxshi samara beradi. 30-40 gramm preparat 10 litr suvda eritib purkaladi. Lichinkalar paydo bo'lgan kundan boshlab prepartni ishlatish kerak, 8-10 kun oralatib, 2 ishlov o'tkaziladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kimsanboyev X.X. va boshq. - Umumiy va qishloq xo'jalik Entomologiyasi, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish. Toshkent, 2002.
2. Olimjonov R.A.- Entomologiya, o'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish. "O'qituvchi". Toshkent, 1977.
3. Kodirov, J., Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Abdullayeva, G., & Muxtorov, S. (2021, July). PRODUCTION POSSIBILITIES OF AUTUMN WHEAT VARIETIES. In Конференции.
4. Турсунов, С., Тешабоев, Н. И., Акбаров, С. А., & Тешабоева, М. (2013). Влияние качества зернопроизводства на эффективность урожая. In Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов (pp. 193-196).
5. Тешабоева, Мафтунахон Икромжоновна. "АНОРНИ ШИРАДАН КИМЁВИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ." Academic research in educational sciences Conference (2022): 761-765.
6. Ikromjonovna, Teshaboyeva Maftuna. "FERULA O'SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA DORIVOR XUSUSIYATLARI." INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM 2.24 (2022): 28-30
7. Тешабоев, Нодирбек; Абдурахимова, Мухабатхон; Эшпулатов, Алишер; Махкамова, Дилёра. ECOLOGICAL CULTURE IS A DEMAND OF TODAY:// RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES. - 2021.
8. Жамолов, Р., Абдуллаева, Г., Ҳайдарова, Н., & Тешабоев, Н. (2021, August). THE ROLE OF WATER AND SALT IN THE LIFE OF BEES: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1334>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).

9. Mirzayeva, M. A., and M. I. Teshaboyeva. "SHOLINING UZROS-7-13 NAVI HOSILDORLIGIGA URUG 'EKISH MUDDATLARINI TA'SIRI." QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI (2023): 292-295.
10. Teshaboyev, N., Teshaboyeva, M., Siddiqova, G., & Ro'zmamatova, I. (2022). URUG 'EKISH MUDDATLARINING KUZGI BUG 'DOY NAVLARI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI. Science and innovation, 1(D7), 118-121.
11. Teshaboyeva, M., B. Mamanazarov, and F. Sayramov. "SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE CHARACTERISTICS." Science and Innovation 1.8 (2022): 509-514.
12. Teshaboeva, M., D. Abdug'Anieva, and S. Raximjonova. "ТАКРОИЙ ЭКИЛГАН МОШ ҲОСИЛИ ТАРКИБИДАГИ ПРОТЕИН МИҚДОРИ." Science and innovation 1.D7 (2022): 517-526.